

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 8 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*  
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ..... 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО  
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ..... 18-24
- Раунов Холмамат*  
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ..... 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*  
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ  
МИСОЛИДА) ..... 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*  
FERMER HO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI  
MISOLIDA) ..... 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*  
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР  
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ..... 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*  
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI  
XIZMATLARI ..... 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*  
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ..... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*  
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF  
ENTERPRISES ..... 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*  
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ..... 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR .....	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI .....	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ .....	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ .....	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ .....	165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ ..... 175-181

*Бекжанов Дилмурод Йўлдашович*  
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН  
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ..... 182-193

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li*  
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY  
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ..... 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*  
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA  
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*  
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ..... 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*  
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR  
MAQSADI..... 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA  
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ..... 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*  
АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ  
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ..... 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*  
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ..... 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ..... 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*  
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ ..... 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ..... 252-257

## **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i> LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI .....	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA .....	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i> DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE .....	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинакуловна</i> РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ .....	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i> KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI .....	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i> ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ .....	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i> O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI .....	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA Tahlili .....	300-305

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Абдурахманова Нодирахон</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ .....	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i> ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА .....	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i> ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ .....	321-330

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i> TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN	
---	--

FOYDALANISH .....	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) .....	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS .....	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI .....	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS .....	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR .....	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....	461-469

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Madaminov Azimbek Egamberganovich**  
UrDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi

**Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li**  
Urganch davlat universiteti Jismoniy  
madaniyat fakulteti talabasi  
E-mail: [uktam.xalillayev@mail.ru](mailto:uktam.xalillayev@mail.ru)

### **YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh ganbolchilarni tayyorlashning zamonaviy pedagogik jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ganbolchi darvozabonlarni o'yin texnikasiga o'rgatish masalalari ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Gandbol, o'yin, darvozabon, jismoniy, harakat, himoya, hujum, to'p, sakrash, mashg'ulot, texnika, maydon.

---

**Madaminov Azimbek Egamberganovich**  
Teacher of the Department of Physical Culture  
Theory and Methodology of UrSU

**Khalillayev Uktam Sobir ugli**  
Student of the Faculty of Physical Culture  
of Urganch State University

### **TRAINING YOUNG HANDBALL GOALKEEPERS ON GAME TECHNIQUES**

**Abstract.** It is considered about the modern pedagogical processes of preparing young handball players in this article. Also, the issues of training handball goalkeepers in game technique were covered.

**Keywords.** handball, game, goalkeeper, physical, action, protection, attack, ball, jumping, activity, technique, field.

---

**Мадаминов Азимбек Эгамберганович**  
преподаватель кафедры теории и методики  
физической культуры УрГУ

**Халиллаев Уктам Собир угли**  
Студентка факультета физической культуры  
Ургенчского государственного университета

## ОБУЧЕНИЕ МЕТОДАМ ИГРЫ ЮНЫХ ГАНДБОЛЬНЫХ ВРАТАРЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные педагогические процессы подготовки юных гандболистов. Также освещаются вопросы обучения гандбольных вратарей технике игры.

**Ключевые слова.** Гандбол, игра, вратарь, физический, движение, защита, атака, мяч, прыжок, тренировка, техника, поле.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N49>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-son farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi [1]. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri — bolalar sporti murabbiylarini tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy pedagogik malakasini shakllantirish va mavjud kadrlarni qayta tayyorlashdan iboratdir. Sportning barcha turlari kabi gandbol o'yinida ham o'zaro raqobatning keskinlashuvi va natijalrning uzluksiz o'sib borishi katta imkoniyatlarga ega bo'lgan yosh iste'dodli hamda raqobatbardosh gandbol o'yinchilarini tayyorlash zaruriyatini kuchaytirmoqda. Bu, pirovardida, gandbol sport turi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratishni hamda shu tizimlar mexanizmini qayta ko'rib chiqish va zamon talablari asosida shakllantirish kerakligini talab etadi. Bu holat shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-murabbiylar zimmasiga juda katta mas'uliyatli ishlarni yuklaydiki, ular gandbol sporti bo'yicha o'yinchilarni tayyorlash jarayonida ularning texnik va taktik tayyorgarliklariga alohida e'tibor berishlari zarur.

To'pni darvozaga kiritmaslik va qarshi hujumni uyushtirish – darvozabon o'yin faoliyatining asosiy vazifalari ana shulardan iborat. Darvozabonning o'yin texnikasi himoya texnikasi va hujum texnikasiga bo'linadi. Gandbol darvozaboni texnikasining usullari futbol, xokkey, suv polosidagi darvozabonning o'yiniga o'xshamaydi. Uning texnikasi mutlaqo o'ziga xos, u mumkin bo'lgan barcha harakatlarni o'z ichiga oladi [6] (2.3-jadval).

1-jadval

### Darvozabonning himoyadagi o'yin texnikasi tasnifi

Usullar guruhi						
Harakatlanishlar		To'pni egallashga qarshilik ko'rsatish				
Yurish Yugurish	Sakrash	Bir oyoq bilan	Ikki oyoq bilan	Gavda bilan	Ikki qo'l bilan	Bir qo'l bilan
<i>Usullarni bajarish yo'li</i>						
Odatda, juftlama qadam bilan	Yuqoriga, oldinga, yon tomonga	Siltash, katta qadam tashlash shpagat	Sapchib oldinga, birlashti-rib	-	Pastdan, yuqoridan, yon tomondan	Pastdan, yuqoridan, yon tomondan
<i>Turi</i>						
-		To'pni yo'naltirib, yo'naltirmay urib chiqarish				
<i>Bajarish sharoitlari</i>						
Yuzma-yuz, yonlama, orqasi bilan turib	Joyidan yugurib kelib	Joyida va siljib yurib, baland, past va o'rtacha uchayotgan uzoq va yaqin masofadan, to'g'ri va sapchigan trayektoriya bo'ylab				

Darvozabonning asosiy harakatlari – vaziyatni tanlash uchun darvozada bir maromda harakatlanish, tezkor harakatlanishlar, sakrashlar, otilish va katta qadamlar bilan tashlanishlar, tezlanishlar, aldamchi harakatlar va to'pni tutib qolish, ilib olish va uzatish kabilardan iborat.

Darvozabonning himoyadagi o'yin texnikasi. Darvozabonning darvozadagi **asosiy turishi** alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u to'pni qaytarishga tayyorlikni ta'minlaydi. Darvozani himoya qilar ekan, darvozabon uchib kelayotgan to'pga sekundning ulushlariga teng vaqt ichida reaksiya ko'rsatishi kerak bo'ladi. Buning uchun u uchib kelayotgan to'pni oyog'i va qo'lining tezkor harakati bilan qaytarishi, gavdasini to'p zarbiga tutib berishi lozim. Shuning uchun darvozabonning tayyorgarligini ifodalovchi asosiy turishi maydon o'yinchisining himoyadagi asosiy turishdan farq qiladi.

Darvozabonning *asosiy turishi* – 160-170° burchak ostida bukilgan oyoqlarni bir-biridan 20-40 sm masofada joylashtirib turishdir. Tana og'irligi ikkala oyoqqa teng taqsimlangan, asosan oyoq kaftlarining old qismiga tayaniladi, qo'llar bir oz bukilib, ikki tomonga yozilgan, qo'l kaftlari oldinga qaratilgan.

Chekka vaziyatdan uchib kelayotgan to'pni qaytarish uchun darvozabon oyoqlarini rostlab, asosiy turish holatini egallaydi, tana og'irligini ko'proq darvoza ustuniga yaqin oyoqqa ishlaydi, ustunga yaqin qo'li yuqoriga ko'tarilgan, bir oz bukilgan bo'lishi lozim.

Hujumchi zarba berishga yo'nalganda, darvozabonning butun tanasi taranglashadi. Buning uchun u oyoq uchlariga ko'tarilib, gavdasini bir oz oldinga chiqaradi. Ayrim tajribali darvozabonlar to'pni kutish asnosida tana og'irligini tez-tez bir oyoqdan ikkinchisiga o'tkazib turadilar, shunda ular har bir lahzada tananing istalgan qismi bilan to'pni qaytarishga tayyor bo'ladilar.

Harakatlanishlar. Darvozabonning maydonda va darvozabon maydonchasida **yurishi** hamda **yugurishi** boshqa maydon o'yinchilariniki kabi bo'ladi. Darvozada esa uning harakatlari juda o'ziga xos.

Avvalo, darvozabon darvozasi yuzasining imkon qadar kattaroq qismini to'sib turadigan vaziyatni egallaydi. Buning uchun u ustunlar orasida bir necha usullarda juftlama qadamlar bilan harakatlanib turadi: to'g'ri chiziq bo'ylab orqaga-darvoza ichiga tisariladi va yana tasavvuridagi yoysimon chiziq bo'ylab oldinga, darvoza chizig'idan 1 m masofagacha chiqadi [6] (2.21-rasm).



1-rasm. Darvozabonning yoysimon chiziq bo'ylab darvoza oldidagi harakatlanishlari

Agar to'p tutgan o'yinchi o'ng tomonga harakatlansa, yoki to'p o'sha tomon uchsa, darvozabon asosiy turishga rioya qilgan holda o'ng tomon bir necha qadam tashlaydi. Agar to'p

maydonchanning bir tomonidan ikkinchisiga uchib o'tsa, darvozabon bir necha qadam tashlab, zarbani kutgancha yana qulay vaziyatni egallaydi.

Darvoza ichida vaziyat tanlash uchun juftlama qadamlar bilan harakatlanib turar ekan, doimiy tayyorgarlik holati darvozabonni tayanchni yo'qotmaslikka undaydi. Agar to'p darvozadan uzoqda o'ynalayotgan bo'lsa, darvozabon yon tomonga katta qadam tashlaydi. Agar darvozani ishg'ol qilish xavfi tug'ilsa, u qisqa juftlama qadamlar bilan harakatlanib, iloji boricha tezroq ikki tayanchli holatni egallashga intiladi.

*Sakrashlar* – darvozabonning majburiy harakatlanish usuli, murakkab o'yin vaziyatlarida u to'p oldiga tezroq etib kelishi uchun shu vositadan foydalanadi. Bunda u ikkala oyog'i bilan ham, ko'pincha bir oyog'i bilan itarilishga majbur bo'ladi. Darvoza tomon uchayotgan to'pni tutib olish uchun darvozabon aksariyat hollarda yon tomonlarga sakrashlarni amalga oshiradi.

Qarshilik ko'rsatish va to'pni egallash. To'pni tutib qolish – darvozabonga hujumchi tashlaganidan keyin darvozaga uchib kelayotgan to'pning yo'nalishini o'zgartirish imkonini beruvchi usul. Bu usulni bir yoki ikki qo'l bilan, bir yoki ikki oyoq, gavda bilan bajarish mumkin. Tizzalar sathida yoki undan pastroqdan uchib kelayotgan to'plar oyoq bilan tutib qolinadi, to'g'ri darvozabonning o'ziga qarab uchib kelayotgan to'pni esa gavda yoki ikki qo'l bilan tutib qolish mumkin.

To'p bilan uchrashganda qo'li qanday holatda bo'lishiga qarab darvozabon to'pni bir qo'li bilan ham tutib qolish imkoniga ega.

Usul turgan joyida yoki harakatlanish bilan, ko'pincha to'pning uchish yo'nalishiga perpendekulyar tomonga sakrash bilan amalga oshiriladi. To'pdan uzoqdagi oyog'i bilan itarilib, yaqindagi oyog'ini harakatlanayotgan tomoniga siltaydi, shu tariqa harakatlanish tezligini oshiradi. Bunda tajribali darvozabonlar to'pni qaysi tomonga yo'naltirishni mo'ljallaganiga qarab pronatsiyalovchi yoki supinatsiyalovchi harakatlarni amalga oshiradilar. To'pni maydoncha sirtiga qaytarish uchun darvozabon pronatsiyalovchi harakat qiladi, darvoza orqasiga o'tkazib yuborish uchun esa supinatsiyalovchi harakatni bajaradi.

Osma trayektoriya bo'ylab orqasiga tushayotgan to'pni tutib qolish uchun darvozabon quyidagicha harakatlanadi. U taxminan  $90^\circ$  ga burilib, uchayotgan to'p ortidan katta qadam tashlaydi va sakrab, uni bir qo'lining panjasi yoki mushti bilan urib yuboradi. Ba'zan mayda qadamlar bilan orqaga tisarilishga to'g'ri keladi, ammo bu unchalik samarali emas.

Agar to'p to'g'ri darvozabonga qarab yoki uning yaqiniga uchayotgan bo'lsa, uni ikki qo'l bilan tutib qolish mumkin; qo'llar yuqoridan, pastdan, yon tomondan harakatlanadi.

Darvozabon to'pni yuqoridan yoki yon tomondan qabul qilganda, uning yo'lini panjalarini birlashtirgan holda oldinga qaratib ochilgan kaftlari bilan to'sadi, pastdan uchayotgan to'p pastga rostlanib tarang tutilgan qo'llarning istalgan qismi bilan qabul qilinadi.

Darvozaning pastki qismiga uchayotgan to'plarni darvozabon oyoqlari bilan tutib qoladi. To'pni *bir oyoq bilan* bir necha usulda tutib qolish mumkin: siltab, katta qadam tashlab, shpagat bilan.

Oyoqni *siltashda* darvozabon harakatni sonini ko'tarishdan boshlaydi, boldir bir oz ortda qoladi. Ayni vaqtda u ikkinchi oyog'i bilan o'sha tomonga qarab itariladi. Gavda bunda vertikal holatini saqlashi kerak. Ko'pincha darvozabonlar oyoqlarini siltab baland uchayotgan to'pni ham tutib qoladilar. Buning uchun yaxshi rivojlangan egiluvchanlik va harakatlar tezkorligi uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

To'pni *katta qadam tashlab* tutib qolish tez-tez ko'zga tashlanadi. Sportchi to'pning yo'lini to'sish uchun oyog'ini tezlikda maydonchaga qo'yadi. Bunda boldir maydoncha sirtiga nisbatan deyarli perpendekulyar holatda, oyoq kafti to'pning uchish yo'nalishiga perpendikulyar holda burilgan. Darvozabon to'pni oyoq kafti yoki boldirning istalgan qismi bilan qabul qiladi. Odatda bir yoki ikkala qo'l oyoqdan sapchigan to'pni qaytarish uchun tayyor turadi.

*Shpagatni* qo'llash darvozaning pastki burchaklariga uchib kelayotgan to'plarni tutib qolish imkonini beradi. Darvozabon rostlangan oyog'ining istalgan qismi bilan to'pni qaytaradi. Ayol darvozabonlar egiluvchanroq bo'lganlari uchun shpagatni juda tez bajaradilar. Erkaklar to'pni ko'pincha bir tizzalariga tayanib yarim shpagat qilgan holda tutib qoladilar, keyin esa orqalariga dumalaydilar.

Agar darvozabonlar shpagatga o'tirib, oyoqlari bilan to'pni tutib qolmasalar, uni bir yoki ikkala qo'llari bilan tutishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, mazkur usul darvozani o'z gavdalari bilan to'sib, o'zlarini zarbaga tutib berishlari uchun imkon yaratadi.

Pastdan uchayotgan to'pni darvozabon ikki oyog'i bilan to'xtatish uchun oyoq kaftlarini birlashtiradi, rostlangan oyoqlarida oldinga irg'ib, to'pni qarama-qarshi tomonga yo'naltiradi. Irg'ish maydoncha sirti bo'ylab 1 m.gacha masofaga amalga oshiriladi. Ko'pincha darvozabon har xil usulda yiqilib, to'pning yo'lini to'sishga majbur bo'ladi. Darvozabon to'pning uchish yo'nalishini oldindan bilish imkoniyatiga ega bo'lmagan holatda u to'p ro'parasida qo'l va oyoqlarini yozib sakraydi, shu tariqa darvozani to'sib, to'pni tanasining istagan qismiga qabul qiladi.

*Ilib olish* – bu to'pning darvozaga kirish yo'lini to'sib, albatta, uni egallab olish imkonini beruvchi usuldir. Ilib olish faqat ikki qo'l bilan amalga oshiriladi. Agar to'pning uchish tezligi juda katta bo'lsa, to'pni, yaxshisi, boshqa biror yo'l bilan tutib qolish, masalan, uni musht yoki kaft bilan darvoza ortiga urib yuborish kerak.

Darvozabonning hujumda o'ynash texnikasi. Texnika asoslari "Maydon o'yinchisi texnikasi" bo'limida bayon etilgan. Darvozabon tayanchli holatda bir qo'l bilan yuqoridan va yon tomondan to'p uzatishni egallab olishi zarur. Uning uchun, ayniqsa, to'pni uzoqqa uzatishni o'zlashtirib olish juda muhim. Darvoza zonasidan tashqarida darvozabonning o'ynash usullari xuddi maydon o'yinchisining o'xshash.

Odatda zarbadan keyin to'pni egallagan darvozabon o'z zonasidan qarshi hujum uyushtirishga intiladi. To'pni sherikning qo'lga nafaqat tez, balki aniq uzatish – hozirgina zo'riqqan holatda bo'lgan va raqib bilan yakkama-yakka olishuvdan g'olib bo'lib chiqqan darvozabon uchun katta san'at. Ba'zida darvozabonlar hujumda bevosita maydon o'yinchisi sifatida ishtirok etadilar va bunda jamoa a'zolari bilan mohirona munosabatga kirishadilar.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent shahri. PF-5924-son 24 yanvar 2020 yil. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020 y., 07/20/5924/0081-son).
2. Janusz Czerwinski / Frantisek Taborsky. Basic handball - Methods / Tactics / Technique. European Handball Federation Gutheil-Schoder-Gasse 9 A-1100 Vienna / AUSTRIA 2000 y.

3. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. Ўқув қўлланма. ITA-Press nashriyoti -Т., 2018. 172 б.
4. For coaches, clubs and players. [www. http://dragoerhb.dk/](http://dragoerhb.dk/)
5. Pavlov Sh.K., Abduraxmonov F.A., Akromov J.A. Gandbol. darslik. O'zDJTI 2005 y.
6. Azizov S.S., Qo'l to'pi o'yin darvozobonini tayyorlash metodikasi. Uslubiy qo'llanma. Namangan 2008-y

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).